O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SAMARQAND VILOYATI SAMARQAND SHAHAR HOKIMINING QARORI

2022 - yil 24 - iyun 418-7-107-Q/22 Samarqand shahar hokimligi

Shaharning markaziy ko‘chalarida yuk avtotransport vositalarining harakatini taqiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Samarqand viloyatiga tashriflari davomida o‘tkazilgan majlis bayonlari hamda Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 17-maydagi “Samarqand shahrida 2019-2022-yillarda amalga oshiriladigan ulkan bunyodkorlik ishlari to‘g‘risida”gi 415-sonli qarori ijrosi doirasida qolaversa jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan, Samarqand shahrining ko‘plab ko‘chalarida keng ko‘lamli qurilish va obodonlashtirish, yo‘l qurish va muxandislik kommunikatsiya tarmoqlarini rekonstruksiya qilish kabi ishlar amalga oshirilayotganligini inobatga olib, ushbu ishlar olib borilishi jarayonida jamoat tartibini saqlash, yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash va shaharning ekologik muhitini toza saqlash maqsadida, Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi nazorat bo’yicha Samarqand shahar inspeksiyasining 06.04.2022 yildagi №212 hamda Samarqand shahri bo’yicha IIO FMBning 07.04.2022 yildagi №41/12-991 sonli xatlarini inobatga olib, “Mahalliy davlat hokimiyati to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Samarqand shahrida ulkan qurilish, bunyodkorlik va obodonlashtirish ishlari jadal olib borilishi munosabati bilan shahar hududidagi ko‘cha - yo‘l tarmoqlarida harakatlanishiga ruxsat berilgan yuk avtotransport vositalari haydovchilariga:

- yuk avtotransport vositalari shahar hududida yuk bilan harakatlanganda,

har qanday holat bo‘lishidan qatiy nazar, yukxonasi (kuzov)ning usti maxsus sifatli yopish moslamalari bilan yopilgan bo‘lishi;

- yuk avtotransport vositalari yuk xonasi (kuzov)dagi yuk normadan oshib ketmasligi;

- yuk avtotransport vositalarining tozaligiga qatiy rioya qilish talablari joriy qilinsin.

2. Shaharning quyidagi nomlari keltirilgan ko‘cha - yo‘l tarmoqlarida yuk avtotransport vositalarining harakatlanishi taqiqlansin: -

- Ibn Sino ko‘chasi;

- Bo‘stonsaroy ko‘chasi;

- Universitet hiyoboni;

- G-34 (X.Vali ko‘chasidan Gulobod ko‘chasigacha);

- Registon ko‘chasi;

- Penjikent ko‘chasi (Jomiy-Amirshohmurod chorrahasidan, Suzangaron - Registon chorrahasigacha);

- Suzangaron ko‘chasi (Andijon ko‘chasidan Registon ko‘chasigacha);

- Gulobod ko‘chasi (Quqon ko‘chasidan G-34 ko‘chasigacha);

- Abdurahmon Jomiy ko‘chasi;

- Shoxrux ko‘chasi (Husayn Boyqaro ko‘chasidan Universitet xiyobonigacha);

- Mirzo Ulug‘bek ko‘chasi;

- Rudakiy ko‘chasi;

- Orzu Maxmudov ko‘chasi;

- Usta Umar Juraqulov ko‘chasi;

- Beruniy ko‘chasi;

- Islom Karimov ko‘chasi;

- Spitamenshoh ko‘chasi (Qozizoda Rumiy ko‘chasidan M.Ulug‘bek ko‘chasigacha);

- Shohi Zinda ko‘chasi;

- Sadriddin Ayniy ko‘chasi;

- Shabod ko‘chasi.

3. Zaruriy hollarda yuk avtotransport vositalarining harakatlanishi taqiqlangan, yuqorida nomlari keltirilgan ko‘chalarda, shahar IIO FMB YHX (Z.Axmedov)ning ruxsati asosida haraktlanishiga ruxsat berilsin.

4. Mazkur ko‘chalarda, kommunal xizmat ko‘rsatuvchi va boshqa maxsus tashkilotlarga tegishli yuk avtotransport vositalarining harakatlanishiga (istisno tariqasida) ruxsat berilsin.

5. Shahar IIO FMB YHX (Z.Axmedov) zimmasiga:

- avtotransport vositalari harakatlanishi taqiqlangan ko‘chalarda harakat xavfsizligini ta’minlash yuzasidan tegishli belgilar o‘rnatish;

- ushbu ko‘chalarga mas’ul xodimlar biriktirish va doimiy nazoratga olish;

- yuk avtotransport vositalarini, alternativ bo‘lgan ko‘chalarda harakat xavfsizligini ta’minlash vazifasi topshirilsin.

6. Shahar hokimligi Axborot xizmati (A.Pulatov) hamda “Samarqand gazetasi” (H.Jurayev)lar qarorning gazetalarda rasman e’lon qilinishi va shahar hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini ta’minlasinlar.

7. Mazkur qaror qabul qilinishi munosabati bilan Samarqand shahar hokimining 2022-yil 30-maydagi 324-7-107-Q/22-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb topilsin.

8. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

9. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish shahar hokimining o‘rinbosari (R.Olimov) hamda shahar IIO FMB YHX bo‘limi (Z.Axmedov) zimmalariga yuklatilsin.

Shahar hokimi **F.Umarov**